



MASHG'ULOTLARDA AXBOROT KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI VOSITALARIDAN FOYDALANISHNING DIDAKTIK JIHATLARI

Junaydullayev Oxunjon Kaxorjon o'g'li
Quruqlikdagi qo'shinlar instituti katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada oliy pedagogik ta'lim tizimida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kommunikativ kompetentligini shakllantirishda axborot-kommunikatsion texnologiyalar (AKT) vositalaridan foydalanishning didaktik jihatlari tahlil etilgan. Tadqiqotda zamonaviy ta'lim jarayonida AKTning o'rni, uning interfaol, reflektiv va kommunikativ imkoniyatlari ochib berilgan. Shuningdek, bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirishda kognitiv, texnologik, sotsiopsixologik va reflektiv yondashuvlarning metodologik ahamiyati asoslab berilgan. Maqolada raqamli platformalar, virtual ta'lim muhiti, multimediali vositalar va interaktiv metodlardan foydalanish orqali ta'lim samaradorligini oshirish imkoniyatlari yoritilgan. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, AKT vositalarining o'quv jarayoniga integratsiyalashuvi o'qituvchi va talaba o'rtasidagi pedagogik hamkorlikni kuchaytiradi, qayta aloqani faollashtiradi hamda kasbiy-kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirishda muhim didaktik shart-sharoitlarni yaratadi.

Kalit so'zlar: axborot-kommunikatsion texnologiyalar, pedagogik ta'lim, kasbiy kommunikativ kompetensiya, bo'lajak o'qituvchi, didaktik shart-sharoitlar, raqamli ta'lim muhiti, interfaol metodlar, reflektiv yondashuv, virtual ta'lim, pedagogik texnologiyalar

Annotation: This article analyzes the didactic aspects of using information and communication technologies (ICT) in the formation of professional communicative competence of future teachers in higher pedagogical education. The study reveals the role of ICT in the modern educational process, emphasizing its interactive, reflective, and communicative potential. Particular attention is paid to methodological approaches such as cognitive, technological, socio-psychological, and reflective approaches in developing professional communication skills of future teachers. The article highlights the possibilities of improving educational effectiveness through the use of digital platforms, virtual learning environments, multimedia resources, and interactive teaching methods. The analysis shows that the integration of ICT into the educational process enhances pedagogical interaction between teachers and students, strengthens feedback mechanisms, and creates essential didactic conditions for the effective development of professional communicative competencies.

Keywords: information and communication technologies, pedagogical education, professional communicative competence, future teachers, didactic conditions, digital learning environment, interactive methods, reflective approach, virtual education, pedagogical technologies

Аннотация: В статье рассматриваются дидактические аспекты использования информационно-коммуникационных технологий (ИКТ) в формировании профессиональной коммуникативной компетентности будущих учителей в системе высшего педагогического образования. Раскрывается роль ИКТ в современном образовательном процессе, их интерактивный, рефлексивный и коммуникативный потенциал. Обоснована методологическая значимость



когнитивного, технологического, социопсихологического и рефлексивного подходов в развитии профессиональных коммуникативных умений будущих педагогов. Особое внимание уделяется использованию цифровых платформ, виртуальной образовательной среды, мультимедийных средств и интерактивных методов обучения как факторов повышения эффективности образовательного процесса. Результаты анализа показывают, что интеграция ИКТ в учебный процесс способствует усилению педагогического взаимодействия между преподавателем и обучающимися, активизации обратной связи и созданию необходимых дидактических условий для формирования профессионально-коммуникативной компетентности.

Ключевые слова: информационно-коммуникационные технологии, педагогическое образование, профессиональная коммуникативная компетентность, будущий учитель, дидактические условия, цифровая образовательная среда, интерактивные методы, рефлексивный подход, виртуальное обучение, педагогические технологии

Bugungi kunda pedagogik ta'limda bo'lajak o'qituvchilarga qo'yilayotgan talablar ortib borayotgan bir paytda, ularning kasbiy tayyorgarlik darajasi, xususan, kasbiy kommunikativ ko'nikmalarning shakllanganligi -zamonaviy ta'lim sifatining muhim ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi.

Oliy pedagogik ta'lim tizimida o'qituvchining kasbiy kommunikativ kompetentligini rivojlantirish nafaqat bilim berish, balki axloqiy, ijtimoiy va madaniy jihatdan yetuk shaxsni shakllantirishga xizmat qiladi.

Zamonaviy ta'lim jarayonida mutaxassisning nazariy bilimlari, amaliy ko'nikmalari, kommunikativ kompetensiyalari -fanlarni o'qitish jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) vositalari asosida integratsiyalashgan tarzda shakllantiriladi. Bu esa interfaol, o'zaro hamkorlikka asoslangan ta'lim uslublarining faol joriy etilishini taqozo etadi.

Kasbiy faoliyat uchun zarur ko'nikmalarni rivojlantirish pedagogik texnologiya nuqtai nazaridan global (umummilliy), bosqichma-bosqich va tezkor (operativ) darajalarda boshqarilishi lozim. Ayniqsa, o'qituvchi tayyorlash jarayonida ushbu yondashuvlar dars dizayni, muloqotga yo'naltirilgan topshiriqlar va tahliliy faoliyatlari orqali ifodalanadi.

Pedagogik faoliyatda yangi metodikalardan samarali foydalanish -o'qituvchi shaxsining raqobatbardoshligini oshirish, o'quvchilarning kommunikativ rivojlanishiga ta'sir qilish va mustahkam ijtimoiy aloqa o'rnatish uchun zarurdir. Shu bois, pedagog zamonaviy raqamli texnologiyalarni chuqur bilishi, undan o'quv mashg'ulotlarida mustaqil va kreativ tarzda foydalana olishi kerak.

Bu ta'lim sifati va muloqot samaradorligining ajralmas omilidir.

Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kommunikativ ko'nikmalarini shakllantirishda o'qitishning texnik vositalaridan -virtual sinf xonalari, raqamli platformalar, interaktiv taqdimotlar, online feedback tizimlari, vizual kommunikatsiya vositalari (infografika,



ta'limiy animatsiyalar)dan foydalanish muhim hisoblanadi.

Bu nafaqat dars jarayonining jonlanishiga, balki o'qituvchining o'z faniga ijodiy yondashuvini shakllantirishga ham xizmat qiladi.

Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, interfaol muhitda ta'lim samaradorligini oshirish, o'qituvchining kasbiy kompetentligini chuqurlashtirishda ta'lim texnologiyalarining ko'lamli integratsiyasi muhim ahamiyat kasb etadi.

Jumladan, mashg'ulotlarda multimediali kontentlar, audio-video refleksiya bloklari, raqamli simulyatsiyalar va keys-stadi mashqlar orqali kommunikativ kompetensiyalarni samarali shakllantirish mumkin.

O.N. Shilova ta'kidlaganidek, "axborot texnologiyalari ta'sirida ta'limning yangi shakllari shakllanmoqda, vosita va metodlar esa o'zgarib bormoqda. Yangi metodologik algoritmlar -AKTning to'laqonliligi va barqarorligini ta'minlashga xizmat qilmoqda" [1].

Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kommunikativ kompetentligini shakllantirish quyidagi metodologik yondashuvlar asosida kompleks tarzda amalga oshirilishi lozim (1-rasmga qarang):

- Kognitiv yondashuv: og'zaki va yozma muloqotni nutq madaniyati asosida tashkil etish;
- Texnologik yondashuv: AKT vositalari orqali virtual kommunikatsiyani shakllantirish;
- Sotsiopsixologik yondashuv: sinfda va jamoada ijtimoiy-muloqot aloqalarini o'rnatish;
- Reflektiv yondashuv: pedagogik holatlarni tahlil qilish, baholash va o'z ustida ishlash madaniyatini shakllantirish.



1 -rasm. Kasbiy kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirilishidagi metodologik yondashuvlar.

Bugungi kunda oliy pedagogik ta'lim tizimi oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biri -bu bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kommunikativ kompetentligini raqamli



texnologiyalar bilan uyg'un holda shakllantirishdir. Chunki jamiyatda yuz berayotgan tub o'zgarishlar, axborot texnologiyalarining hayotimizning barcha sohalariga chuqur kirib borishi o'qituvchi shaxsiga nisbatan ham yangi kompetensiyalarni talab qilmoqda. Bunda ta'lim jarayonida axborot-kommunikatsion texnologiyalar (AKT) vositalaridan samarali foydalanish - faqat texnik vosita emas, balki o'qituvchi shaxsini rivojlantiruvchi vosita sifatida qaralmoqda.

Pedagogik texnologiyalar va axborot-kommunikatsion vositalarning roli. Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kommunikativ kompetentligini shakllantirishda pedagogik texnologiyalar, interaktiv metodlar, raqamli vositalar muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan:

- Interaktiv elektron ta'lim resurslari (Moodle, Google Classroom, Edmodo va b.) yordamida o'quvchilar bilan samarali muloqotga kirishish;
- Mobil ilovalar va onlayn platformalar orqali o'qituvchi-o'quvchi, o'qituvchi-ota-ona, o'qituvchi-hamkasb kommunikatsiyasini mustahkamlash;
- Virtual laboratoriyalar, simulyatsiya vositalari yordamida ixtisoslashtirilgan fanlarni o'qitishda vizual, tinglov va kinestetik kommunikatsiyani uyg'unlashtirish;
- Audio-vizual texnologiyalar (video darslar, podkastlar, real vaqtli konferensiyalar) orqali muloqotni ko'pkanalli tarzda tashkil etish;

bularning barchasi bo'lajak o'qituvchining kommunikativ malakalarini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqadi.

Ta'limda axborot kommunikatsion texnologiyalardan foydalanishda zamonaviy ta'lim tizimining barcha jihatlarini modernizatsiya qilishni ko'rib chiqish lozim. Rus tadqiqotchi B.S.Gershunskiy tadqiqotida ta'lim-metodik jarayonlarni isloh qilishning dolzarbligini quyidagicha ta'kidlaydi: "Pedagogik jarayonning prinsipi qayta ko'rib chiqilishi orqali uning samaradorligini ko'tarish yo'li: o'qitish jarayonining barcha bosqichlarida tinglovchilarni asosan bajaruvchi, reproduktiv faoliyatdan ijodiy, izlanuvchilik faoliyatiga o'tkazish tarbiya, ta'lim berish va rivojlantirish shakllarini tashkil etish vositalari, maqsadlari, mazmuni va uslublarini qat'iy unifikatsiyalashdan - talabalarning ta'lim olish jarayonlarini individuallashtirish va differensiyatsiyalashga o'tkazish ta'lim jarayonining barcha tarkibiy qismlarini yakka g'oyalikdan - g'oyalar turfa xilligiga, hayotda o'z o'rnini, dunyoqarashini va e'tiqodini, ruhiy rivojlanish yo'lini erkin tanlash imkoniyatini yaratish; texnokratik yo'nalishning tizimli disbalansidan (muvozanatsizligidan) gumanitar yo'nalishlar ustuvorligiga o'tish - o'qituvchi va ta'lim oluvchilarning tabiat qonunlariga mos keladigan ta'lim va o'quv-o'rganuv o'zaro hamkorligiga erishishga olib keladi" [2].

L.N.Prokoliyenko esa: "... axborot kommunikativ texnologiyalar mavjud o'qitish tizimiga shunchaki qo'shimcha emas, uning roli uch tarkibiy qismli "o'qituvchi-ta'lim oluvchi-o'quvchi" ta'lim tizimidan to'rt tarkibiy qismli tizimga o'tkazishga borib taqalmaydi. Axborot kommunikativ texnologiyalar ta'lim tizimining barcha tarkibiy qismlaridagi, ta'lim mazmunidan boshlab uning tashkiliy shakllarigacha, obyektiv o'zgarishlarga olib keladi" [3].

Axborot kommunikatsion texnologiyalarining rivojlanishi xususan ta'lim sohasida o'qitish vositasi sifatida o'quv trenajyorlarini faol qo'llanilishi mutaxassislarning soha yo'nalishlarini o'rganishiga keng imkoniyat yaratdi. Mashg'ulotlarda axborot texnologiyalari vositasida turli ma'lumotlarni ko'rgazmali shaklda taqdim etilishi ta'lim



oluvchilarning ijodiy salohiyatini va ularning kasbiy kommunikativ ko'nikmalarini shakllanishi, ilmiy-izlanish ishlarini tashkil etish kompetensiyalarini rivojlanishi, ta'lim-tarbiya jarayonini jadallashtirish va uning samarasi hamda sifatini oshirishda yordam beradi.

Ta'limning axborot kommunikativ texnologiyalari haqida to'laqonli fikr yuritish uchun tizimli yondashuv, yaxlit ma'lumot bazasini yaratish, qayta (ikki taraflama) aloqaning mavjudligi, interfaol hamkorlik, ochiqlik va davomiy rivojlanish kabi faoliyat olib borish prinsiplarini amalda qo'llash lozim (1 -jadval qarang):

1-jadval.

Axborot kommunikativ texnologiyalar bilan bog'liq holatlar tahlili

№	Axborot kommunikativ texnologiya	Axborot texnologiyalar bilan bog'liq holatlar
1.	Axborot kommunikativ texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari	- axborot kommunikativ texnologiyalari ta'limda avvalambor ta'lim olish faoliyatini (asosan mustahkamlash mazmunida) tashkil etishda yordamchi vositasi; - axborot kommunikativ texnologiyalar yangi ta'lim muhitini, anglash instrumentini yaratish vositasi; - axborot texnologiyalari kommunikatsiya vositasi, ma'lumotlar manbai va boshqalar
2.	Axborot kommunikativ texnologiyalaridan foydalanish	- o'qituvchi axborot kommunikativ texnologiyalar tizimlar tipi; - o'qitishda ishlatiladigan vositalar; - instrumental tizimlar.
3.	Axborot kommunikativ texnologiya vositalarining imkoniyatlari	- axborot kommunikativ texnologiyalaridan ta'lim berish jarayonini mukammallashtiruvchi o'qitish vositasi sifatida foydalanish; - axborot kommunikativ texnologiyalaridan o'qitish, o'zini va borliqni anglash vositasi sifatida foydalanish; - zamonaviy axborot texnologiyalaridan talabaning ijodiy rivojlanishida vosita sifatida foydalanish; - axborot kommunikativ texnologiyalaridan talabalarni nazorat, to'g'rilash, test sinovlarini o'tkazish va psixodiagnostikasini amalga oshirish jarayonlarini avtomatlashtirish vositasi sifatida foydalanish; - axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida o'quv kommunikatsiyalari va ta'lim beruvchi dialoglarini tashkil etish; - kompyuter texnologiyalari vositalaridan aqliy hordiqni tashkil etish uchun foydalanish
4.	Axborot kommunikativ texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari	- qayta ishlash - istalgan ko'rinishdagi (sonli, matnli, grafikali, tovushli) ma'lumotlarni tez va aniq qayta ishlash; - transdyuser - axborot kommunikativ texnologiyalarning turli shakllarda ma'lumotlarni qabul qilish va taqdim etish imkoniyati; - kombinator - ma'lumotlarning katta hajmini yodda saqlab qolish, saqlash, tizimlash, farqlash va zarur ma'lumotni tez topish imkoniyati; - grafik - mehnat natijalarini aniq ko'rgazmali shakllarda (matnli, ovozli, suratli, diagrammali) taqdim qilish; - modellash - mavjud obyektlar va hodisalarning ma'lumot



		modelini yaratish
5.	Axborot kommunikativ texnologiyalaridan foydalanishning asosiy yo'nalishlari	- modellash, til, nutq va ijtimoiy-madaniy jarayon va hodisalarni ko'rgazmali taqdim etish kabi ta'lim maqsadlarida foydalanish; - o'quv materiallaridan foydalanishda mashqlarni tashkil etish (ko'nikmalarni shakllantirish); - ko'nikma, qobiliyat va bilimlarni nazorat qilib borish va baholash hamda statistik ma'lumotlarni to'plash, qayta ishlash va saqlash; - ma'lumotlarni izlashni avtomatlashtirish; - kompyuter tarmoqlari yordamida dialog va kommunikatsiyalarni ta'minlash
6.	Axborot kommunikativ texnologiyalari vositalarining o'qituvchi oldidagi didaktik vazifalari	- o'quv materiallarini uzatishga ketadigan vaqtni ixchamlashtirish; - foydalaniladigan ma'lumot turlariga u yoki bu axborot kommunikatsion vositalari ta'sir qilishini belgilab olish; - foydalanishda bo'lgan metodik qo'llanmalarining sifatini oshirish; - talabalarning axborot kommunikativ texnologiyalarida foydalanishlari uchun zarur bo'lgan sharoitni yaratish
7.	Axborot kommunikativ texnologiyalarining imkoniyatlari	1) fanni o'zlashtirishida mavzu bo'yicha ma'lumotlarni amaliy jihatdan o'zlashtirish imkoni; o'zaro hamkorligini rivojlantirish maqsadida axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish imkoniyati nazariy xulosalarning asosini tashkil etadi; talaba ta'lim vositalari asosida bilim, ko'nikma va malakasini oshiradi; 2) o'quv guruhlarining yetarli miqdorda davomiylikda mustaqil ishlashini tashkil etish uchun axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish o'qituvchida boshqa talabalar bilan bevosita muloqot qilish va "o'qituvchi - talaba" tartibida o'zaro hamkorlik o'rnatish imkoniyatini yaratadi;

Bugungi kunda ta'lim sohasida mutaxassis xususan, bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash jarayoni o'z oldiga yangicha vazifalarni qo'ymoqda.

Bu vazifalar orasida pedagogik faoliyatni AKT yordamida samarali tashkil qilish, interfaol muloqotni yo'lga qo'yish va kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish alohida o'rin tutadi.

AKT yordamida ta'lim berish jarayoni -bu oddiy ma'lumotni uzatishdan ko'ra kengroq va murakkabroq tizim bo'lib, o'z ichiga quyidagi komponentlarni oladi: dasturlashtirilgan ta'lim, muammoli o'qitish, ekspert tizimlar, hamda reflektiv o'quv kommunikatsiyalari.

Bunday yondashuv nafaqat o'qituvchi shaxsining rivojlanishini qo'llab-quvvatlaydi, balki:

- o'quvchining qobiliyatlarini aniqlash,
- mustaqil o'rganish ko'nikmalarini shakllantirish,
- o'rganilgan bilim va ko'nikmalarni amalda qo'llash salohiyatini kengaytiradi.

AKT asosidagi ta'limda "aks aloqa" (feedback) tushunchasi muhim o'rin tutadi. Bu aloqa ikki darajada yuzaga chiqadi:

1. Tashqi reflektiv aloqa - bu o'qituvchining talaba faoliyati ustidan nazorat olib borishi;



2. Ichki refleksiv aloqa - o'quvchining o'z-o'zini baholashi va nazorat qilishi.

Dars jarayonining barcha bosqichlarida asosiy didaktik ta'sir AKT vositalari orqali amalga oshirilganda, o'qituvchi quyidagi jihatlarni aniqlash va tahlil qilish imkoniyatiga ega bo'ladi:

- bilimni izlashga bo'lgan intilish,
- mavjud bilimlarni qayta ishlatish,
- bilimlarni to'ldirishga bo'lgan qiziqish,
- mustaqil tahlil va refleksiya ko'nikmalari.

Bularning barchasi o'qituvchining individual metodik loyihalash qobiliyatini mustahkamlaydi.

Ayrim tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, metodika -bu til, nutq va bilimlarni egallash bo'yicha qonuniyatlarni aniqlovchi mustaqil ilmiy yo'nalishdir. Shu nuqtai nazardan, metodika bilan AKTni kommunikativlik kategoriyasi birlashtiradi. Chunki samarali ta'lim jarayoni bevosita mazkur ikki omil -metodik yondashuv va axborot texnologiyalarining o'zaro uyg'unligiga tayanadi.

Axborot texnologiyalarining an'anaviy texnik vositalardan asosiy farqi shundaki:

- ular intellektual faoliyatni qo'llab-quvvatlaydi,
- audiovizual va interaktiv imkoniyatlarga ega,
- o'quvchini faol bilish jarayonining ishtirokchisiga aylantiradi.

Bu esa o'z navbatida bo'lajak o'qituvchilarda:

- fanni o'zlashtirish bilan birga kasbiy o'zlikni anglash,
- ijtimoiy va madaniy qadriyatlarga nisbatan sezuvchanlik,
- ijodiy yondashuv va tanqidiy tafakkurni rivojlantirishga olib keladi.

Pedagog-talaba o'rtasidagi muloqotda AKT dan foydalanish - bu shunchaki vosita emas, balki:

- professional refleksiyani qo'llab-quvvatlovchi omil,
- o'qituvchining kasbiy shaxsiy sifatlarini shakllantiruvchi resurs,
- ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan zamonaviy platformadir.

Shuningdek, bo'lajak o'qituvchilar uchun yaratilayotgan elektron platformalar, mobil ilovalar, ta'limiy simulyatorlar va muammoli keyslar o'zlashtirilgan bilimni mustahkamlashda muhim o'rin tutadi. Bu esa o'z navbatida, o'qituvchining nafaqat axborot beruvchi, balki rivojlantiruvchi lider sifatidagi rolini ta'kidlaydi.

Didaktik sharoit tushunchasining o'ziga xos chegarasi uning ta'lim jarayoniga kiruvchi barcha tarkibiy unsurlarni - maqsadlar, mazmun, uslub, shakl va vositalarni o'z ichiga qamrab olganligidir.

V.I.Andreyevaning fikriga ko'ra, didaktik sharoit bu: "ta'lim jarayonining shart-sharoitlaridir. U maqsadga yo'naltirilgan tanlov, tuzulma va aniq didaktik maqsadlarga erishilganlik natijasidir.

" Ya'ni, "didaktik shart-sharoit" -bu ta'lim jarayonining tarkibiy qismlari eng maqbul o'zaro hamkorlikda bo'lgan holati bo'lib, o'qituvchiga ta'lim jarayonini samarali boshqarish, bo'lajak o'qituvchiga esa mazmunli o'qish imkonini beradi [4].

R.S. Gershunskiyning ta'lim vositalariga muvofiq ta'kidlashicha, didaktik shart-sharoitlarni ichki talablar va ularning faoliyat olib borishiga tashqi tavsiflarning o'zaro



aloqasi birligi sifatida o'rganish lozim. Shuning uchun ham bo'lajak o'qituvchilarni o'qitish jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikatsion texnologiyalarni joriy qilish bilan bog'liq didaktik shart-sharoitlarga alohida e'tibor qaratiladi. An'anaviy ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni qo'shish natijasida yuzaga keladigan tashqi hamda ta'lim muassasalari kontekstida yuzaga chiqadigan ichki didaktik shart-sharoitlar ajratib olinishi zarur [2].

Didaktikada har qanday ta'lim vositasining (xususan, telekommunikatsiya texnologiyalarining) didaktik xususiyatlari deganda, ularning tabiiy va texnik sifatlardan tashqari, ta'lim-tarbiya jarayonidagi qo'llanilish imkoniyatlari tushuniladi. Bu xususiyatlar o'quvchi va o'qituvchi o'rtasidagi samarali axborot almashinuvini ta'minlaydi. A.G. Geynga ko'ra, vaqt o'tishi bilan ta'limning texnik jihatlari ikkinchi planga o'tadi va metodik jihatlar ustuvor ahamiyat kasb etadi. Ana shu bosqichda axborot-kommunikatsion texnologiyalar o'qitish metodikasining tarkibiy qismiga aylanadi.

Raqamli texnologiyalar bilan jihozlangan darslarda intellektual hamkorlikni faollashtirish o'quv jarayonida qayta aloqani kuchaytiradi. Bu esa ta'limning samaradorligini va sifatini oshiradi.

Yuqoridagilarga asoslanib aytish mumkinki, pedagogik tayyorgarlik jarayonida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-kommunikativ ko'nikmalarini shakllantirish bu - real ta'lim vaziyatlarida nostandart masalalarni hal qilishga va ta'limiy faoliyatni samarali tashkil etishga xizmat qiladi.

Zamonaviy ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, o'quv jarayoniga raqamli texnologiyalarni tatbiq etish o'qituvchi va o'quvchining roli va vazifalarini mohiyatan o'zgartiradi. Ta'lim komponentlarining barchasiga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatadi: o'qituvchi va talabalar o'rtasidagi hamkorlik, ularning faoliyat harakteri, uslubi va mavqei o'zgaradi.

"O'qituvchi - ta'lim vositalari - talaba" tizimida amalga oshiriladigan didaktik vazifalarning o'zaro uyg'unligi ta'minlanadi. Bu esa axborot-kommunikatsion texnologiyalarni o'quv jarayoniga integratsiyalash orqali pedagogik tizimda tub o'zgarishlarni yuzaga keltiradi.

"Shaxs - ta'lim vositasi - shaxs" tizimi esa yuqori samaradorlikka ega bo'lib, an'anaviy ta'lim yondashuvlaridan farqli tarzda innovatsion pedagogik yechimlarni tatbiq etish imkonini beradi.

Bu, o'z navbatida, ta'lim jarayonlarini takomillashtirishga, bo'lajak o'qituvchilarning intellektual salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

Xulosalar qilib aytganda, axborot-kommunikatsion texnologiyalar (AKT) yordamida shakllantirilayotgan kommunikativ ko'nikmalar o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi intellektual hamkorlikni kuchaytiradi, dars jarayonida qayta aloqani mustahkamlaydi va ta'lim samaradorligini oshiradi.

Shu bilan birga, "shaxs - kompyuter - shaxs" tizimi o'quv faoliyatining sifat jihatlarini yangi bosqichga olib chiqadi.

An'anaviy dars formatidan farqli ravishda, AKT vositalaridan foydalanilgan ta'lim jarayoni metodik jihatdan takomillashtiriladi, bu esa bo'lajak o'qituvchilar uchun o'z kasbiy faoliyatini tashkil etish, axborot bilan ishlash va uni ta'sirchan yetkazish bo'yicha zaruriy tayyorgarlikni shakllantiradi.



Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, axborot texnologiyalarining o'quv jarayoniga integratsiyasi pedagogik tizimda sezilarli o'zgarishlarni yuzaga keltiradi, ya'ni o'qituvchi - ta'lim vositalari - o'quvchi o'rtasidagi didaktik muvozanatni saqlagan holda kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirishning metodik asosini yaratadi.

FOYDALANAYOTGAN ADABIYITLAR:

1. Shilova O.N. Ta'limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining (AKT) roli va yangi pedagogik shakllar mavzusida dissertatsiyasi -2021.
2. Gershunskiy B.S. **Философия образования для XXI века** / B.S.Gershunskiy. - М. : Пед. о-во Rossiya, 2002. - 508 с.
3. Prokoliyenko L.N. **Методологические проблемы использования компьютера в обучении** // Компьютер в обучении: психолого-педагогические проблемы: <http://www.voppsy.ru/issues/1986/866/866042.htm>.
4. Andreyeva V.I. **Предпосылки и дидактические условия дифференцированного обучения учащихся**./ V.I. Г Andreyeva. - М. : Пед. о-во Rossiya, 1992.

TAQRIZ

"Mashg'ulotlarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalaridan foydalanishning didaktik jihatlari" mavzusidagi mazkur maqola oliy pedagogik ta'lim tizimida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kommunikativ kompetentligini shakllantirish masalasiga bag'ishlangan bo'lib, mavzu zamonaviy ta'lim jarayonining dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi.

Maqolada axborot-kommunikatsion texnologiyalarning (AKT) ta'lim jarayonidagi o'rni, ularning interfaol, reflektiv va kommunikativ imkoniyatlari ilmiy-nazariy jihatdan asoslab berilgan. Muallif AKT vositalarini pedagogik jarayonga integratsiyalash orqali o'qituvchi va talaba o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, qayta aloqani faollashtirish hamda kasbiy kommunikativ ko'nikmalarni samarali shakllantirish imkoniyatlarini ochib bergan.

Maqolada bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kommunikativ kompetentligini rivojlantirishda kognitiv, texnologik, sotsiopsixologik va reflektiv yondashuvlarning metodologik ahamiyati tizimli ravishda yoritilgan. Shuningdek, raqamli platformalar, virtual ta'lim muhiti, multimediali va interaktiv vositalardan foydalanish ta'lim samaradorligini oshirish omili sifatida asoslab berilgan. Keltirilgan jadval va metodik umumlashtirishlar mavzuning mazmunan boyitilishiga xizmat qiladi.

Maqolaning tuzilishi mantiqiy izchillikka ega, bayon etilgan fikrlar ilmiy uslub talablariga mos holda ifodalangan. Foydalanilgan adabiyotlar mavzuga mos va yetarli darajada tanlangan.

Xulosa qilib aytganda, mazkur maqola ilmiy va amaliy ahamiyatga ega bo'lib, oliy pedagogik ta'lim tizimida faoliyat yuritayotgan professor-o'qituvchilar, tadqiqotchilar va bo'lajak pedagoglar uchun foydali hisoblanadi. Maqolani ilmiy jurnal va to'plamlarda chop etishga tavsiya etiladi.



TAQRIZ

“Mashg‘ulotlarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalaridan foydalanishning didaktik jihatlari” mavzusidagi maqola oliy pedagogik ta‘lim tizimida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kommunikativ kompetentligini shakllantirish muammosiga bag‘ishlangan bo‘lib, zamonaviy ta‘lim jarayonining dolzarb yo‘nalishlaridan birini qamrab oladi.

Maqolada axborot-kommunikatsion texnologiyalarning ta‘lim jarayonidagi didaktik imkoniyatlari keng yoritilgan, ularning interfaol, kommunikativ va reflektiv xususiyatlari ilmiy-nazariy asosda tahlil qilingan. Muallif AKT vositalaridan foydalanish orqali bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy muloqot madaniyatini shakllantirish, pedagogik hamkorlikni rivojlantirish va ta‘lim samaradorligini oshirish imkoniyatlarini asoslab bergan.

Tadqiqotda kasbiy kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirishda kognitiv, texnologik, sotsiopsixologik hamda reflektiv yondashuvlarning o‘zaro uyg‘unligi muhim metodologik asos sifatida ko‘rsatilgan. Raqamli platformalar, virtual ta‘lim muhiti, multimediali va interaktiv vositalarning ta‘lim jarayoniga integratsiyasi bo‘yicha keltirilgan tahlillar mavzuning amaliy ahamiyatini oshiradi.

Maqola mantiqiy izchillikda bayon etilgan, undagi xulosalar umumlashtirilgan va ilmiy asoslangan. Foydalanilgan adabiyotlar mavzuga mos bo‘lib, muallif fikrlarining ishonchliligini ta‘minlaydi. Matn ilmiy uslub talablariga to‘liq javob beradi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, mazkur maqola pedagogik ta‘lim tizimi uchun nazariy va amaliy jihatdan muhim bo‘lib, ilmiy jurnalda chop etishga tavsiya etiladi.